



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:4 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</i>	4
2.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Bobomurodov Abdurasul</i>	7
3	KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH <i>Ruziyev Oybek Abdimuminovich, Karimov Erkin Yusubovich</i>	10
4	KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RESURSLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRIGA TA'SIR E'TUVCHI OMILLARI <i>Ketmanov Avazbek Malikovich</i>	13
5	ELEKTR ENERGIYASINI SOTISHDA YO'QOTISHLARNI QOPLASH BO'YICHA HISOB-KITOBBLAR <i>Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li</i>	16
6	DAVLAT XARIDLARINING IQTISODIY MAZMUNI VA MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI: NAZARIY YONDASHUVLAR <i>Xamdamov Sardor Farmon o'g'li</i>	19
7	MAVSUMIY ISHLAB CHIQARISH SHAROITIDA KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Kilichev Alisher Akramovich</i>	21
8	XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Primkulova Zilola Abrorovna</i>	23
9	TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna</i>	25
10	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VA SOLIQ INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH <i>Sanakulova Iroda Abrorovna</i>	28
11	TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI <i>Dadaev Kuvanish Mashrapovich</i>	31
12	RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING AFZALLIKLARI <i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich</i>	34
13	QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Bakhodir Khoshbakov</i>	36

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI

Dadaev Kuvanish Mashrapovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

dadaevkuvonch@gmail.com

ORCID 0009-0008-6606-0723

Annotatsiya: Maqolada klasterli yondashuv asosida maqsad va strategiya vazifalariga mos keluvchi moslashuvchan infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, innovatsion yondashuvlar asosida tadbirkorlik faolligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: klaster, infratuzilma, investitsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik, tizim, ta'lim, mavofiqashtiruvchi markaz, integratsiya, resurslar, model, iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract: This article examines the formation of an adaptive infrastructure aligned with the goals and objectives of the development strategy based on the cluster approach. It substantiates that the application of innovative approaches aimed at enhancing entrepreneurial activity contributes to strengthening the competitiveness of business entities and ensuring their economic security.

Keywords: cluster, infrastructure, investment, innovation, competitiveness, system, education, coordination center, integration, resources, model, economic security.

Абстрактный: В статье рассматриваются вопросы формирования адаптивной инфраструктуры, соответствующей целям и задачам стратегии развития на основе кластерного подхода. Обосновано, что применение инновационных подходов, направленных на повышение предпринимательской активности, способствует укреплению конкурентоспособности субъектов предпринимательства и обеспечению их экономической безопасности.

Ключевые слова: кластер, инфраструктура, инвестиции, инновации, конкурентоспособность, система, образование, координационный центр, интеграция, ресурсы, модель, экономическая безопасность.

Kirish (Введение/Introduction).

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inflyatsiya va ishsizlik darajasini, kambag'allik muammosini, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil qilish va ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80%ga va eksportdagi ulushini 60%ga yetkazish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish va iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish vazifalari qo'yilgan. "Muhimi, bu jarayonda tadbirkorlarimiz hal qiluvchi kuch sifatida eng oldingi safda turib, sanoat va servis ob'ektlarini tashkil qilib, doimiy ish o'rni yaratishda, aholimiz, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o'rnatib, mahallalarning o'zida ishli va daromadli qilishda alohida jonbozlik ko'rsatmoqda"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Обзор литературы /Literature review

Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar J.M.Keyns, D.Nort, A.B.Adams, B. Mensh G., Porter M., Kortum S., Solou R., Toffler E., Frimen K., E.Soto, Dj.Forrester, G.S.Bekker tomonidan tadqiqotlar olib borgan.

Tashqi muhitning dinamik o'zgarishlari nuqtai nazaridan tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va majmual baholashni takomillashtirish masalalari Rossiyalik olimlardan N.V. Artemeva, S.V. Bank, I.G. Borok, M.M. Gayfullina, N.E. Yegorova, Ye.V. Kostomarov, V.F. Gaponenko, A.L. Bepalko, A.S. Vlskov, N.B. Golovanova, L.P. Goncharenko, L.A. Zaporozseva, A.V. Agibalov, N.A. Kazakova, A.A. Krasnozhek, D.A. Dines, A.S. Kretova, L.I. Pronyaeva, V.V. Maslennikov, A.A. Troxov, V.P. Nevmyvako, A.P. Sudoplatov, S.V. Lekarev, L.Yu. Filobokova, A.V. Shoxnex, A. Yanioglo, Ye.Yu. Xrustalyov va boshqa mualliflarning ishlarida ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini X.P.Abulqosimov, Q.X.Abduraxmonov, T.T.Jo'raev, A.F.Rasulev, T.S.Rasulev, A.V.Vaxobov, A.O'Imasov, A.A.Mamatov,

U.V.G'afurov, D.Tojiboeva, S.Xudoyqulov, B.O.Tursunov, Sh.R.Qobilov va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rsatish mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi bo'yicha tadqiqot olib borgan J.Shumpeter tadbirkorlikni innovason faoliyat bilan bog'lagan holda uni "yangi kombinasiyalarni amalga oshirish jarayoni" deb ta'riflaydi[2]. F. Hayek tadbirkorlikni "bozordagi imkoniyatlarni izlash va ulardan foydalanish" deb hisoblaydi[3]. Rus olimlari I.A.Shalaev va A.V.Seregin tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqadilar[4].

O'zbekistonlik olimlardan A. Vahobov tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni uni rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining ahamiyatini ta'kidlab, "tadbirkorlik sub'ektlari uchun moliyaviy manbalarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati tadbirkorlik salohiyatining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" deb hisoblaydi[5]. I. Niyazmetov esa tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini baholashning majmual yondashuvini taklif etib, uni "iqtisodiy, innovatsion, intellektual va institutsional komponentlar" asosida o'rganishni tavsiya etadi[6].

Tadqiqot usullari (Методы исследования/Methods)


Mazkur tadqiqotda maqolada klasterli yondashuv asosida maqsad va strategiya vazifalariga mos keluvchi moslashuvchan infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, innovatsion yondashuvlar asosida tadbirkorlik faolligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanadi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida texnologik taraqqiyotning texnologik qonuniyatlarga ta'siri va unda raqamli iqtisodiyotni o'rni ochib berilgan va xulosalar shakllantirildi. Statistik tahlil usulidan foydalangan holda texnologik taraqqiyotda raqamli iqtisodiyotni o'rni baholandi.Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida dialektik, tizimli, ilmiy abstraksiya, monografik tahlil, iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil, grafik, jadval va tahlil va sintez usullari, deduksiya va induksiya usullari, ekspert baholash, usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar (Анализы и результаты/ Analysis and results).

Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini klasterli yondashuv asosida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tegishli institutsional muhit o'zgarishlari asosida chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga olgan mexanizm orqali ta'minlash mumkin. Taklif etilayotgan mexanizm maqsad va strategiya vazifalariga mos keluvchi moslashuvchan infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, innovatsion yondashuvlar asosida tadbirkorlik faolligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida klaster tizimlarini rivojlantirish masalasi qator Respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M.A.Rahmatov, B.Zaripov A.F. Rasulev, D.M.Kurbanova, F.X.Nazarova, D.M.Mirzaxalilova, K.R.Xonkeldieva, N.S.Karimova[7] kabi mahalliy olimlar iqtisodiy klasterlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilganlar. Ular klaster konsepsiyasini mintaqalar va tarmoqlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omil sifatida baholashgan. M.Porter klasterini muayyan soha doirasidagi geografik jihatdan joylashgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar, ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, raqobatchilar va boshqa manfaatdor tomonlar guruhi sifatida ta'riflaydi[8]. Bunday klasterlarda korxonalar yuqori malakali ishchi kuchi, umumiy bozorlar, innovatsiyalar, mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mintaqaviy klaster deganda, ishlab chiqarish korxonalari, uskunalar va ehtiyot qismlar yetkazib beruvchi korxonalar, ishlab chiqarish va servis xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar, shuningdek, ilmiy va ta'lim muassasalarining yig'indisi tushuniladi. Ular hududiy yaqinlik va tovar hamda xizmatlar ishlab chiqarish sohasida kooperativ munosabatlar orqali bir-biri bilan bog'liqdir.

Klaster tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga katta imkoniyat yaratadi. Bu, ayniqsa, transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishga, ta'lim va ilm-fan muassasalarini takomillashtirishga, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatidagi risklarni taqsimlashga investitsiyalarni jalb etish orqali amalga oshiriladi. Bu usul, o'z navbatida, yuqori xavf-xatar, taxditlar mavjud bo'lgan sharoitlarda, ya'ni tizimning barcha bosqichlarida dolzarb hisoblanadi. Tadbirkorlik tizimini klaster texnologiyalari asosida tashkil etish mexanizmi infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning klasterli mexanizm modeli taklif etilmoqda.



1.Rasm.Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining invariant modeli[9].

Ushbu 1.Rasmda klaster texnologiyalari asosida tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional modeli tasvirlangan. Model klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik, resurslar almashinuvi va institutsional muvofiqlashtirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan. Unda davlat organlari, tadbirkorlik sub'ektlari, ta'lim va ilm-fan muassasalari, venchur fondlari, infratuzilma tashkilotlari hamda muvofiqlashtiruvchi markaz o'rtasidagi funksional munosabatlar aks ettirilgan. Mazkur model klaster ishtirokchilari o'rtasidagi gorizonttal va vertikal integratsiya orqali tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini majmualar tarzda ifodalaydi. Uning afzalligi shundaki, iqtisodiy xavfsizlik alohida korxona darajasida emas, balki butun klaster ekotizimi doirasida shakllantiriladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalar diffuziyasi, transaktsion xarajatlarni qisqartirish va tashqi iqtisodiy shoklarga barqarorlikni oshirish imkonini beradi. Shunday yondashuv klaster modeliga zamonaviy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyalari va xalqaro standartlarni integratsiya qilish

imkonini beradi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Mintaqaviy-maxalliyashtirilgan klasterli modelning umumiy boshqaruvi – Muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan amalga oshiriladi. U bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlar va instrumentlari bilan ta'minlangan. Muvofiqlashtiruvchi markaz infratuzilma muhitining bir qismi bo'lib, ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soladi va muvofiqlashtiradi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- klaster tashabbuslarini aniqlash;
- Tadbirkorlik sub'ektlarini loyihaviy ish bilan ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish;
- barcha ishtirokchilar faoliyati samaradorligini ta'minlash;
- xalqaro hamkorlikka jalb qilish;
- innovatsion faollikni oshirish va faoliyatning innovatsion xususiyatga ega bo'lishini ta'minlash.

Muvofiqlashtiruvchi markaz o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni yuqorida ko'rsatilgan bevosita va bilvosita ta'sir choralari orqali amalga oshiradi. Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv ta'sir choralari quyidagi bandlar bilan to'ldirish taklif etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining tegishli hududiy Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyalari loyihalarini ishlab chiqish, ularni O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va boshqa yuqori darajadagi dasturlar bilan o'zaro bog'liq holda muvofiqlashtirish.

2. Klaster ishtirokchilari uchun tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyalarini ishlab chiqishda ko'maklashish.

3. Tadbirkorlik sub'ektlari – klaster ishtirokchilarining faoliyatini monitoring qilish, shu jumladan, ularning iqtisodiy xavfsizlik darajalarini kuzatib borish orqali moliyaviy barqarorlikni yo'qotish xavfini oldini olish.

4. Klaster ishtirokchisi bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni ro'yxatga olish va reestrini yaratish va unga xizmat ko'rsatish, shuningdek, klaster ishtirokchilari va boshqa manfaatdor tomonlarga reestrda kirish imkoniyatini ta'minlash.

Mintaqaviy-maxalliyashtirilgan klasterning markaziy bo'g'ini – klasterning yadrosi hisoblanadi. Bu yadro klaster rivojlanish yo'nalishini belgilaydigan tarmoq korxonalaridan tashkil topgan bo'lib, ular mintaqadagi yirik tarmoq korxonalarini o'z ichiga oladi. Bu korxonalar mintaqaviy iqtisodiyotning o'sish drayverlari bo'lib, qo'llab-quvvatlovchi sifatida tadbirkorlik sub'ektlarini qamrab oladi. Klaster ishtirokchi korxonalarining o'zaro hamkorligidan kelib chiqadigan sinergetik ta'sir quyidagilarga imkon yaratadi: tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish; tadbirkorlik sub'ektlarini kafolatli ishlar bilan ta'minlash; innovatsion jarayonlarni jadallashtirish; ko'lam samarasi hisobiga samaradorlikni oshirish; natijada, mintaqaning tadbirkorlik sub'ektlari raqobatbardoshligini va ularning iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanadi.

Klaster tuzilmasining markaziy bo'g'ini ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim va ilmiy muassasalar, davlat organlari o'rtasidagi tarmoq aloqalari va sheriklik munosabatlariga ega. Bu tadbirkorlik sub'ektlariga yangi texnologiyalar, ilg'or bilimlar va bozorlarga chiqish imkoniyatini beradi, shuningdek, hamkorlikdagi loyihalar va dastur tashabbuslarida ishtirok etishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, mushtarak muammolarni hal etish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va faoliyatni diversifikatsiya qilish imkoniyati tufayli tadbirkorlik sub'ektlari uchun risklar kamayadi va ularning barqarorligi oshadi. Infratuzilma muassasalari va tashkilotlari, ta'lim va ilmiy muassasalar Muvofiqlashtiruvchi markaz bilan hamkorlikda klaster ishtirokchilarining quyidagi resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga yordam beradi: axborot xizmati; iqtisodiy-huquqiy ko'mak; tashqi iqtisodiy faoliyatga oid maslahatlar; moliyaviy-kredit va savdo vositachilik xizmatlari; ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari. Bu, o'z navbatida, klasterning rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishiga xizmat qiladi, ishtirokchilarga barqaror faoliyat yuritish va innovatsion rivojlanish uchun zarur resurslar va xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. M.Porter tranzaksiya xarajatlarni kamaytirishni korxonalar va mamlakatning umumiy raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ta'riflagan[10]. Tranzaksiya xarajatlarni kamaytirishga qo'shimcha ravishda, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni ro'yxatga olish va yuritish reestrini tuzish yordam beradi. Ushbu reestr klaster ishtirokchilari va boshqa manfaatdor shaxslarga ochiq kirish imkonini taqdim etadi. Taklif etilayotgan mexanizmi amalga oshirish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi: klaster ishtirokchilari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni shakllantirish, savdo operatsiyalarini soddalashtirish, tijoriy almashinuv jarayonlarini jadallashtirish, tovar va xizmatlarni izlash va

kelishishdagi vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, yuqorida qayd etilgan tahdidlarni bartaraf etish. Taklif etilayotgan mexanizmi amalga oshirish quyidagi tahdidlarni yumshatishga yordam beradi: innovatsion salohiyatning cheklanishi va pasayishi; turli tarmoq va hududlarda tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish sharoitlaridagi notekislik; tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashdagi nomutanosiblik; tadbirkorlik sub'ektlarining raqobatbardoshligining pasayishi.

Xulosa (Заключение / Conclusion)

Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiya va strategiyasini amalga oshirish jarayonida klasterning Muvofiqlashtiruvchi markazi faol ishtirok etishi zarur. Buning asosiy sabablari: tadbirkorlik sub'ektlarining real manfaatlari, roli va rivojlanish salohiyatini hisobga olish; ularning barqarorligi, xavfsizligi va

raqobatbardoshligini oshirish. Mezodarajada strategik rejalashtirish hujjatlarining asosiy vazifalari: iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan biznes muhitini yaratish; resurslarga kirish imkoniyatlarini ta'minlash; infratuzilmani rivojlantirish; milliy va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Tadbirkorlik sub'ektlari Muvofiqlashtiruvchi markazning uslubiy yordami asosida o'zlarining individual konsepsiya va strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim. Bu jarayon: tavakkalchiliklar va tahdidlarni neytrallashtirish; klaster ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish; biznesning umumiy barqarorligini oshirish imkonini yaratadi. Shu tariqa, tadbirkorlik sub'ektlari uchun xavfsiz va barqaror rivojlanish muhiti yaratilib, ularning iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi 26.12. 2025-yil.
2. Schumpeter, J. A. (1934). The theory of economic development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Hayek, F. A. (1945). The use of knowledge in society. American Economic Review, 35(4), 519–530.
4. Shalaev, I.A. Finansovaya podderjka malogo predprinimatelstva kak uslovie obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti Orlovskoy oblasti / I.A. Shalaev, A.V. Seregin, Ye.A. Skorobogatova. // Simvol nauki. – 2016. – №. 6–1.: <https://cyberleninka.ru>.
5. Global Yentreprenurs'hip Index 2023. // <https://thegedi.org/global-yentreprenurs'hip-and-development-index/>
6. World Bank (2022). Doing Business 2022. Was'ington DC: World Bank Group.
7. Raxmatov M., B.Zaripov. Klaster-integratsiya, innovasiya va iqtisodiy o'sish. Risola. Toshkent. Zamin Nashr. 2018. 12 b., Rasulov A.F. Razvitie xlopkovogo kompleksa - vajnoe napravlenie klasternoy ekonomicheskoy politiki v Uzbekistane// Obshchestvo i ekonomika, №7-8, 2005g., Kurbanova D. M. Perspektivy formirovaniya innovatsionnykh klasterov v Uzbekistane// "Rynok, dengi i kredit". — 2011 — №1. — S. 43., Mirzaxalilova D.M. Povyshenie konkurentosposobnosti promyshlennosti Uzbekistana na osnove klasterizatsii (na primere tekstilnoy promyshlennosti). Diss. na soisk. kand. ekon. nauk., Xonkeldieva K. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. 08.00.13 – Menejment, 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021 yil., Karimova N.S., "O'zbekistonda klasterlar faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy asoslari" 08.00.01-"Iqtisodiyot nazariyasi" va 08.00.07 - "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
8. Porter, M. Konkurentnaya strategiya: metodika analiza otrasley i konkurentov / M. Porter. – M.: Alpina Publisher, 2016. – 603 s.
9. Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.
10. Porter, M. Konkurentnaya strategiya: metodika analiza otrasley i konkurentov / M. Porter. – M.: Alpina Publisher, 2016. – 603 s.